



SAVDODA ZAXIRALAR HISOBINI XALQARO STANDARTLARGA MUVOFIQLASHTIRISH

Umarov Javohir - Toshkent iqtisodiyot va axborot texnologiyalari
universiteti o'qituvchisi, umaroffdj@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada savdoda zaxiralar hisobi dolzarbligi asoslangan. 2-BHXS "Zaxiralar" satandartining asosiy qoidalari, jumladan zaxiralar tannarxini aniqlash tartib-qoidalari keltirilgan. Zaxiralar tannarxini xalqaro standartlarga muvofiq hisoblash maqsadida ishchi schetlar kiritish hamda ularni qollash uslubiyotini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan. Zaxiralarning xarid tannarxni aniqlash jarayonini buxgalteriya hisobi schotlarida aks ettirish tartibi taklif etilgan.

Kalitli so'zlar: savdo, zaxira, zaxira tannarxi, xarid tannarxi, raqamli savdo, tovarlar

Аннотация: Данная статья посвящена актуальности учета запасов в торговле. Представлены основные положения 2-го стандарта МСБ «Запасы», включая процедуры определения себестоимости запасов. Предложены способы введения рабочих диаграмм и совершенствования методологии расчета себестоимости запасов в соответствии с международными стандартами. Предложена процедура отражения процесса определения себестоимости приобретения запасов в бухгалтерском учете.

Ключевые слова: торговля, запасы, себестоимость запасов, себестоимость приобретения, цифровая торговля, товары

Abstract: This article is devoted to the relevance of inventory accounting in trade. The main provisions of the 2nd IASB "Inventories" standard are presented, including the procedures for determining the cost of inventories. Proposals are made to introduce working charts and improve the methodology for calculating the cost of inventories in accordance with international standards. A procedure for reflecting



the process of determining the purchase cost of inventories in accounting records is proposed.

Keywords: *trade, inventory, inventory cost, purchase cost, digital trade, goods*

Kirish

Savdoda buxgalteriya hisobini takomillashtirish dolzarb hisoblanadi.

Uning dolzarbligi quyidagi omillar bilan belgilanadi:

1. Biz zaxiralar hisobini 2-son BHXSlagi asosida xalqaro standartlar asosida tashkil qilishimiz, uning talablarini amaliyotga joriy qilishimiz kerak.

2. Zaxiralar hisobini raqamli iqtisodiyot, yashil iqtisodiyot talablariga muvofiqlashtirish talab etiladi.

3. Savdoda sun'iy intellekt texnologiyalaridan samararali foydalanish davr talabi hisoblanadi.

Shu bois, zaxirlara hisobini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish borasida tadqiqotlar olib borish zaruriyati mavjud.

Adabiyotlar sharhi.

Savdoda zaxiralar hisobi bo'yicha bir qancha tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, K.B.Urazov va X.O'.Po'latovlar (2025) raqamli savdo tushunchalariga ta'riflar ishlab chiqilgan "Maqolamizda zamonaviy raqamli savdo turlariga ularning buxgalteriya hisobi ob'ektlari sifatidagi eng muhim tasnifiy xususiyatlarini o'zida mujassamlashtiruvchi quyidagicha ta'riflar ishlab chiqilgan:

raqamli savdo – bu tovarlarni xaridorlarga zamonaviy savdo maydonlari (marketlar, birjalar, omborlar) orqali turli formatlarda oflayn va onlayn rejimlarda donalab, katta va kichik partiyalarda, hisob-kitoblarni naqd pulga, plastik kartalar, mobil aloqa vositalari, pul ko'chirish yo'li orqali amalga oshirishga asoslangan savdo faoliyati.

raqamli nasiya savdo – bu tovarlarni xaridorlarga chakana savdo korxonalari orqali oflayn va onlayn rejimlarda donalab hisob-kitoblarni naqd pulga, plastik kartalar va mobil aloqa vositalari orqali nasiyaga hisob-kitoblarni sotish



shartnomalari shartlari asosida amalga oshirishga asoslangan chakana savdo faoliyati.

Raqamli UzPost bo'limlari orqali savdo - bu tovarlarni xaridorlarga UzPost bo'limlari orqali oflayn va onlayn rejimlarda kichik partiyalarda hisob-kitoblarni individual buyurtmalar bo'yicha naqd pulga, plastik kartalar va mobil aloqa vositalari orqali oldindan to'lov shaklida amalga oshirishga asoslangan chakana savdo faoliyati.

Raqamli ombor (terminal) orqali savdo - bu tovarlarni xaridorlarga ombor (terminal) orqali oflayn va onlayn rejimlarda tuzilgan shartnomalar asosida katta partiyalarda naqdsiz to'lov shaklida amalga oshirishga asoslangan ulgurji savdo faoliyati.

Raqamli birja savdosi – bu elektron onlayn-auksion va tanlovlarni tashkil etish hamda o'tkazish uchun zarur axborotni kiritish, saqlash va qayta ishlash, shuningdek, istagi bo'lgan jismoniy va yuridik shaxslarning bunday auksion va tanlovlar jarayoniga kirish hamda ularda qatnashish imkonini ta'minlaydigan savdo faoliyati.”¹

U.Nurmanov (2012) milliy standartimizni takomillashtirib bo'yicha “4-sonli «Tovar-moddiy zaxiralar» nomli BHMSning 10-bandini «Ilgari berilgan tovar qarzining qaytarilishi yoki tovar qarzini olish» deb nomlangan «z» punktini mazmun-mohiyati jihatidan qayta tahrir etish lozim, deb hisoblaymiz. Chunki, «tovar qarzi» iborasi jarayonning mohiyatini to'la ochib bermagan. Bizningcha, mazkur bandni «Xo'jalik sub'ektlariga ilgari berilgan tovar-moddiy zaxiralarning qaytarilishi yoki tovar-moddiy zaxiralarini qarz (kredit)ga olish» deb qayta tahrir qilish maqsadga muvofiqdir”²

N.S.Toshnazarova (2024) tomonidan savdo korxonalarining samaradorlik ko'rsatkichlari umumiyqtisodiy rentabellik ko'rsatkichlari, mijozlarni jalb qilish va loyallik ko'rsatkichlari, aktivlardan foydalanish va jalb qilingan kapital

¹ K.B.Urazov va X.O'.Po'latovlar. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil, 2025-yil, may www.sci-p.uz

² У.Нурманов. Жорий активлар ҳисоби ва таҳлилини такомиллаштириш. //Автореферат. Тошкент. 2012 й. 11 бет



samaradorligi ko'rsatkichlari, inson resurslaridan foydalanish samaradorligi ko'rsatkichlariga ajratilgan holda tahlil qilish uslubiylotini taklif etgan³.

Baxrom Bobobekov tomonidan (2024) "amaldagi 4-son BHMS "Tovar-modiy zaxiralar" nomli milliy standart qoidalarini metodologik jihatdan xalqaro standartlarga uyg'unlashtirish maqsadida taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan"⁴

Ushbu tadqiq qilingan sohaga doir adabiyotlardan ko'rinib turibdiki, savdoda zaxiralar hisobini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish bo'yicha tadqiqotlar etarli emas.

Tadqiqotlar va natijalar

Zaxiralarga oid asosiy xalqaro standartlarda quyidagi qoidalar ishlab chiqilgan. 1-son BHXS "Moliyaviy hisobotni taqdim etish" standartining 78-bandi "Alohida moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotda yoki izohlarda taqdim etiladigan axborotlar"ning 3-xatboshida "3. Zaxiralarning kengroq detalli tasniflanishi quyidagi moddalarni o'z ichiga oladi:

- tovarlar;
- ishlab chiqarish zaxiralari;
- materiallar;
- tugallanmagan ishlab chiqarish;
- tayyor mahsulot".

2-son BHXS "Zaxiralar" standartiga muvofiq zaxiralarga kiradi: xarid qilingan va qayta sotish uchun mo'ljallangan tovarlar, o'z ichiga oladi masalan, chakana savdo tashkilotlari tomonidan xarid qilingan va qayta sotish uchun mo'ljallangan tovarlar yoki qayta sotish uchun mo'ljallangan yer va boshqa mulklar. Zaxiralarga shu bilan bir qatorda tayyor mahsulotlar yoki tugallanmagan ishlab chiqarish hamda ishlab chiqarish jarayonida foydalaniladigan xom-ashyo va materiallar kiradi. Zaxiralarning yuzaga kelishiga olib kelmaydigan xaridorlar bilan

³ Н.Тошназарова. Савдо корхоналарида иқтисодий самарадорлик кўрсаткичлари, ҳисоблаш тартиби ва такомиллаштириш масалалари. September 2024 [Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil](#) 2(9):388-403

⁴ Б.Бобобеков. Товар-моддий захиралар ҳисобини халқаро стандартларга мувофиқ такомиллаштириш масалалари //November 2024 [Ilq'or iqtisodiyot va pedagogik texnologiyalar](#) 1(2):260-266



shartnomalarning bajarilishi bilan bog'liq amalga oshirilgan xarajatlar (yoki boshqa standartlarning qo'llanilishi doirasiga tushadigan aktivlar) 15-son MHXS "Xaridorlar bilan shartnomalar bo'yicha tushumlar" standartiga muvofiq hisobga olinadi.

Zaxiralarning **operatsion siklida aylanishidagi ishtiroki** nuqtai nazardan uchta guruhga ajratish mumkin:

- operatsion siklida aylanadigan zaxiralar (xom-ashyo va materiallar, tugallanmagan ishlab chiqarish, tayyor mahsulotlar, tovarlar, jo'natilgan tayyor mahsulotlar va tovarlar);

- ma'muriy boshqaruv jarayonida, sotish jarayonida foydalaniladigan zaxiralar (ma'muriy-boshqaruv jarayonida foydalaniladigan materiallar, sotish jarayonida foydalaniladigan materiallar);

- xo'jalik inventarlari (mulk (yer, bino), plant hamda mashina va asbob-uskunalar tarkibiga kirmagan xo'jalik inventarlari va anjomlari).

Boshqaruv maqsadlarida muhim tasniflashlardan biri bu zaxiralarning **me'yorlashtirilishi, ya'ni standartlashtirilishi** hisoblanadi. Standart costing (standard costing) tizimida bir birlik mahsulotga nisbatan ishlatiladigan zaxiralarning me'yorlari qo'llaniladi. Me'yorlar mahsulot birligiga nisbatan donalarda, kilogrammlarda, metrda, pul birligida yoki boshqa me'yorlarda o'lchanilishi mumkin.

Zaxiralarning **aylanish tezligiga qarab**, ularni quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

- tez soatbay aylanadigan zaxiralar (bular soatbay aylanadigan zaxiralar, masalan bir soatda bir necha marta aylanadigan zaxiralarni kiritish mumkin);

- kunbay aylanadigan zaxiralar (masalan, 1-10 kungacha bo'lgan vaqtda, yoki 11-20 kungacha yoxud 21-30 kungacha aylanadigan zaxiralarni kiritish mumkin);

- sekin, masalan oybay aylanadigan zaxiralar (bir oydan olti oygacha vaqt ichida sekin aylanadigan zaxiralar, bularga ishlab chiqarish sikli uzoq vaqt davom etadigan ishlab chiqarishlarni kiritish mumkin).



Zaxiralar tannarxini shakllantirish muhim jarayon bo'lib, uning natijalari yakuniy moliyaviy natijalarga bevosita ta'sir ko'rsatadi. 2-son BHXS "Zaxiralar" standartida zaxiralarni baholash masalalari bo'yicha qoidalar kiritilgan. Unga muvofiq "zaxiralar majburiy tartibda quyidagi miqdorlardan eng kichigi bo'yicha baholanishi shart:

(a) tannarxi (cost value); yoki

(b) sof sotish mumkin bo'lgan qiymati (realizable value)."


Ushbu qoidaning 2-son BHXS va O'zbekiston Respublikasi 4-son BHMS tahririy yoritilishini ko'rib chiqaylik (1-jadval).

1-jadval

Xalqaro va milliy standartlarda zaxiralarni baholashga oid qoidalarining solishtirilishi

2-son BHXS "Zaxiralar"	4-son BHMS "Tovar-moddiy zaxiralar" (2020 yil 30 iyunda ro'yxatdan o'tkazilgan)
Zaxiralarni baholash Zaxiralar quyidagi ikkita miqdorlardan eng kichigi bo'yicha baholanishi shart: (a) tannarxi (cost value); yoki (b) sof sotish mumkin bo'lgan qiymati (realizable value)"	12. Tovar-moddiy zaxiralarni baholash quyidagi ikkita qiymatlardan eng pasti bo'yicha amalga oshiriladi: balans tuzilayotgan sanadagi tannarx (sotib olish narxi yoki ishlab chiqarish tannarxi); balans tuzilayotgan sanadagi Realizatsiya qilishning sof qiymati.

2-son BHXS "Zaxiralar" standartida ko'zda tutilgan baholash qoidalarini quyidagi rasmda aks ettiramiz (1-rasm).



1-rasm. Zaxiralarni baholash.


2-son BHXSda zaxiralar tannarxiga (cost value) quyidagi elementlar kiritilishi ko'rsatilgan:

“Xarid tannarxi (cost of purchase);

qayta ishlash tannarxi (cost of conversion);

zaxiralarni joriy holatga va joriy joylashtiriladigan joyiga keltirish bilan bog'liq boshqa ustama xarajatlar (other overhead) kiritilgan”.

Zaxiralarning boshlang'ich tannarxi tarkibiy qismlarini quyidagi rasmda aks ettirishimiz mumkin bo'ladi (2-rasm).



2-rasm. Zaxiralar tannarxi elementlari.

Standart talablariga ko'ra zaxiralar tannarxi quyidagilarni o'z ichiga olmaydi:

- zaxiralarni saqlash bilan bog'liq anomal chiqindilar;
- ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lmagan ma'muriy ustama xarajatlari;

- sotish xarajatlari;
- zaxiralarga xorijiy valyutadagi fakturasi bo'yicha yaqindagi xaridiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'lgan kurs farqlari;
- muddati uzaytirish sharti bilan zaxiralar xaridi bo'yicha foiz xarajatlari.

Zaxiralar tannarxini shakllantirishda qiymat zanjiri asosida yondashish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Zaxiralar qiymatining zanjir asosida shakllanishi quyidagi rasmda aks ettiramiz (5.5-rasm).



3-rasm. Zaxiralar tannarxining zanjir asosida shakllanishi modeli.

Alohida ta'kidlash lozimki, zaxiralar qiymati zanjirli tizim asosida shakllanadi, ya'ni zaxiralarning xarid tannarxi, qayta ishlash tannarxi va boshqa ustama xarajatlar alohida ajralgan holda shakllanadi deb yondashilmaydi. Ular bir-biri bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi. Masalan, dastavval zaxiralarning xarid tannarxi shakllanadi, undan so'ng uning ustiga qayta ishlash tannarxi qo'shiladi. Qayta ishlash tannarxini o'zida mujassamlantirgan zaxira xarid tannarxi va qayta ishlash tannarxidan iborat bo'ladi. Uning ustiga zaxiralarni joriy holati va joylashtirish joyiga yetkazish bilan bog'liq boshqa ustama xarajatlarning ushbu zaxiralarga to'g'ri keladigan qismi taqsimlanadi.

Yuqoridagi misol asosida zaxiralarning tannarxini aniqlash bo'yicha jarayonlarni taklif etilayotgan buxgalteriya schotlarida aks ettirish tartibi bilan tanishib chiqamiz (1-jadval).



1-jadval

Zaxiralarning xarid tannarxni aniqlash jarayonini buxgalteriya hisobi schotlarida aks ettirish tartibi

Moliyaviy-iqtisodiy operatsiyalar	Schotlar korresponden- siyasi		Summa
	Debet	Kredit	
1. Umumiy xarid summasi 277500 AQSh dollarini tashkil etadi. Bojxona hujjatlarini rasmiylashtirgan kunda rasmiy kurs 9528.49 so'mni tashkil etgan. Xarid summasi O'zbekiston so'mida 2 644 155 975 so'mni tashkil etadi	1710	6010	2 644 155 975
2. Ta'minotchi tomonidan 1%lik chegirma taqdim etilgan. Chegirma summasi – $2\,644\,155\,975 \text{ so'm} \times 1\% / 100\% = 26\,441\,560 \text{ so'm}$	6010	1720	26 441 560
3. Ta'minotchilarga qaytarilgan zaxiralar yoki ta'minotchi tomonidan narxning kamaytirilishi summolari. Oy maboynida ushbu kategoriyadagi operatsiya yuz bergan emas	6010	1730	
4. Qonunchilikka muvofiq, bu kategoriyadagi tovarlar uchun 10% bojxona boji belgilangan. Bojxona boji summasi 264 415 598 so'm bo'ladi. Deklarasiya uchun to'lov 15 400 000 so'mni tashkil etgan	1740	6011	264 415 598
	1740	6990	15 400 000
5. Ortib-tushirish va transport xarajatlari - 2 500 000 so'm	1750	6990	2 500 000



6. Sertifikatlash va sinab ko'rish xarajatlari summasi. Ushbu oyda ushbu kategoriyadagi operatsiyalar yuz bermagan	1760	6990	
7. Zaxiralarni ishlab chiqarishga tayyorlash xarajatlari	1770	1010, 6710	
8. Oy maboynida 1710-1770 schotlarda to'plangan summalar 1810-schyot bilan yopiladi.	1810	1710	2 644 155 975
	1720	1810	26 441 560
	1730	1810	-
	1810	1740	279 815 600
	1810	1750	2 500 000
	1810	1760	-
	1810	1770	-
7. 1810 "Xaridlar tannarxi" schyotining debet oboroti va kredit oboroti o'rtasidagi farq xarid qilingan zaxiralarning tannarxini beradi. 1810-schyotning debet oboroti 2926 471 573 so'm (2 644 155 975 + 279 815 598 + 2 500 000); kredit oboroti 26 441 560 so'm tashkil etgan. Debet va kredit oboroti o'rtasidagi farq zaxiralarning xarid tannarxini beradi 2 900 030 015 so'm (2 926 471 573 – 26 441 560)	1910	1810	2 900 030 013

Keltirilgan jadvaldagi yozuvlardan ko'rinib turibdiki, zaxiralar xarid tannarxini aniqlash uchun 1710 "Zaxiralar xarid tannarxi" schyoti ko'zda tutilgan. Zaxiralar xarid tannarxning barcha elementlari uchun 1710-schyotdan 1770-schyotgacha mo'ljallangan schotlar taklif etilmoqda. Oy davomida xarid jarayoni bilan bog'liq operatsiyalar 1710-1770 schotlarda aks ettiriladi. Natijada, har bir schyotda mo'ljallanganligiga qarab oy maboynida xarid summasi, xarid chegirmasi, xaridning qaytarilishi va narxidan tushishi, xarid bilan bog'liq bojxona boji, boshqa



yigʻimlar, deklarasiya qilish xarajatlari, transport-tayyorlov xarajatlari, sertifikatlash va sinash xarajatlari summolari toʻplanib boriladi.

Ushbu metodik tartib xalqaro standartlar talablariga javob beradi.

Xulosa.

Yuqoridagi tadqiqotlar asosida quyidagi xulosalar qilindi:

1. 2-son BHXS “Zaxiralar” standartiga muvofiq zaxiralarga kiradi: xarid qilingan va qayta sotish uchun moʻljallangan tovarlar, oʻz ichiga oladi masalan, chakana savdo tashkilotlari tomonidan xarid qilingan va qayta sotish uchun moʻljallangan tovarlar yoki qayta sotish uchun moʻljallangan yer va boshqa mulklar kirishi taʼkidlandi hamda zaxiralarning bir qancha belgilari boʻyicha tasnifiy asoslari taklif etildi.

2. 2-son BHXSda zaxiralar tannarxiga (cost value) quyidagi elementlar kiritilishi koʻrsatilgan: Xarid tannarxi (cost of purchase); qayta ishlash tannarxi (cost of conveyance); zaxiralarni joriy holatga va joriy joylashtiriladigan joyiga keltirish bilan bogʻliq boshqa ustama xarajatlari (other overhead) kiritilgan. Ushbu qoidalaridan kelib chiqib tovarlarning xarid tannarxini aniqlash maqsadida 1710 “Zaxiralar xarid tannarxi” schyoti hamda zaxiralar xarid tannarxining barcha elementlari uchun 1710-schyotdan 1770-schyotgacha moʻljallangan schotlar taklif etildi.

3. Zaxiralarning xarid tannarxni aniqlash jarayonini buxgalteriya hisobi schotlarida aks ettirish tartibi taklif qilindi.

Ushbu takliflarning amaliyotga joriy qilinishi zaxiralar hisobini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirishga xizmar qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. 2-son BHXS “Zaxiralar”
[https://nrm.uz/contentf?doc=650002_\(ias\)_2_zapasy&products=1_vse_zakonodatelstvo_uzbekistana](https://nrm.uz/contentf?doc=650002_(ias)_2_zapasy&products=1_vse_zakonodatelstvo_uzbekistana)
2. K.B.Urazov va X.Oʻ.Poʻlatovlar. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil, 2025-yil, may
www.sci-p.uz



3. У.Нурманов. Жорий активлар ҳисоби ва таҳлилини такомиллаштириш.
//Автореферат. Тошкент. 2012 й. 11-бет

4. **Н.Тошназарова.** Савдо корхоналарида иқтисодий самарадорлик кўрсаткичлари, ҳисоблаш тартиби ва такомиллаштириш масалалари.
September 2024 [Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil](#) 2(9):388-403

5. **Б.Бобобеков.** Товар-моддий захиралар ҳисобини халқаро стандартларга мувофиқ такомиллаштириш масалалари //November 2024 [Ilg'or iqtisodiyot va pedagogik texnologiyalar](#) 1(2):260-266